

O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANISHI**Shomirzayev Shohruxmirzo Xurmatillo o'g'li****Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti****Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası****1-bosqich talabasi****Shohruhshomirzayev555@gmail.com****+998941818143****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10648945>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda sportga bo'lgan e'tibor va yoshlarni sportga jalb qilish shuningdek ularni jahon turnirlaridagi ishtiroki tahlil qilinadi. Bundan tashqari sportning yanada rivojlantirish uchun ham bir nechta takliflar aytib o'tiladi. Shuningdek maqolada sportni hozirgi kundagi bir nechta kamchiliklarga yechimlar va fikrlar takidlab o'tiladi. Jismoniy tarbiya sohasini tubdan rivojlantirishga doir qarorlar o'rganiladi.

Kirish: Shuni ta'kidlab o'tish keraki, O'zbekiston mustaqillikga erishganidan so'ng barcha sohalarga katta e'tibor qaradi. Shuningdek Jismoniy tarbiya va sport sohasida ham katta o'zgarishlar bo'ldi deb aytsam xat'o bo'lmaydi. Xususan 1992-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" qaror qabul qilindi va yillar o'tishi natijasida o'zgartirib borildi, bu esa jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishiga juda katta zamin yaratdi. Bundan tashqari yoshlarni sportga jalb qilish uchun 2000-yildan boshlab umumta'lim maktablar o'quvchilari o'rtasida «Umid nihollari», kasb-hunar kollejlari talabalari o'rtasida «Barkamol avlod», oliy o'quv yurt talabalari o'rtasida «Universiada» kabi sport musobaqalari tashkil etildi va bu musobaqalar g'oliblari uchun qimmatli sovg'alar qoyilib kelinadi. Bu sport musobaqalarida g'olib bo'lgan yoshlar Osiyo va Jahon chempionatlarida qatnashib, yurtimiz nomini himoya qilib faxrli o'rinlarni olib kelishmoqda. Bu sportni rivojlantirish orqali turizm ham rivojlanmoqda. Masalan, bizning yurtimizdan chiqqan chempionlarni dunyo tanish orqali bizning yurtimizga turistlar kelishmoqda. Hozirgi kunda sportning eng faxrli musobaqasi bu Olimpiada hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo'mitasi 1992-yil 21-yanvarda tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo'mitasi 1993-yil sentyabrda Xalqaro Olimpiadaning 101-sessiyasida to'la-tokis tan olindi. Bundan tashqari, yoshlarni sportga jalb qilish uchun 1996-yili poytaxtimiz Toshkent shahrida Olimpia shon-shuxrati muzeyi ochildi. Bizning Qo'mitamiz sportchilarimizni Olimpiadada qatnashishini taminlab kelmoqdalar. Va shuni ta'kidlab o'tish keraki, 2016-yilda Braziliyaning Rio-de-Janero shahrida bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiada o'yinlarida yurtimiz nomini himoya qilgan sportchilarimiz, 4 ta oltin, 2 ta kumush va 7 ta bronza medallarini qo'lga kiritib yurtimizga qaytib keldi. Xususan, Ruslan Nuriddinov og'ir atletika bo'yicha Olimpia rekordini qo'yib oltin medanga ega bo'ldi. O'zbekistonda sportning boks turi juda ham keng rivojlanmoqda chunki shu 2016-yilgi Olimpiadada qo'lga kiritilgan medallarning 7 tasi bokschilarga tegishli hisoblanadi. Shuningdek sportning futbol turi bo'yicha ham O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bir nechta qaror va farmonlar chiqargan bulardan biri, «O'zbekiston Respublikasi futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qaror. Bu va boshqa qarorlar natijasida futbol ham keng rivojlanib kelinmoqda. Hozirgi kunda futbolchilarimizni juda ko'p so'vrinlarga ega. Misol uchun, 1994-yilda Osiyo chempionatida olimpia terma jamomiz, 2012-yil 17-yoshgacha bo'lgan osmir yoshlar Osiyo Chempionati g'olibi, 2018-yil 23-yoshgacha bo'lgan o'smirlar Osiyo chempioni

g'olibi va shuningdek o'tgan 2023-yilda ham 23-yoshgacha bo'lgan osmirlar Osiyo chempioni bo'lishdi va 23 yoshlilar o'rtasida bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga yo'lanmani qo'lga kiritishdi. Va chempionlarimizga Prezidentimiz tomonidan Malibu-2 moshinasi sovg'a qilib berildi. So'z o'rnida aytib o'tish keraki, Futbol haqida gap borganda O'zbekistonlik hakam ham ko'z oldimizga keladi ya'ni Ravshan Ermatov. Ravshan Ermatov 2003-yilda FIFA hakami statusini oladi. Bundan tashqari, 2008, 2009, 2010, 2011, va 2014 yillarda Osiyoning eng yaxshi hakami unvoniga sazovor bo'ladi. Xattoki Ravshan Ermatov Xalqaro futbol uyushmasi tomonidan «Dunoying eng yaxshi hakami» deb tan olinadi. Prezidentimiz tomonidan Ravshan Ermatov 2010-yil «O'zbekiston iftixori», 2014-yil «El-yurt hurmati» ordeni, 2015-yil «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni va Malibu avtomobili bilan mukofotlandi. Bundan ko'rinadiki, sport musobaqalari davlat va jamiyatimiz tomonidan doim mukofotlanib va taqdirlanib kelinadi. Hozirgi kunda maktab va oliy o'quv yurtlarida ham jismoniy tarbiya darslari ovtib kelinadi. Bu esa yoshlarni sog'lom va baquvvat bo'lib ulg'ayishiga sabab bo'ladi. Bu jismoniy tarbiya darslarida yaxshi o'zini ko'rsata olgan talab avo o'quvchilar kelajakda va hozir albatta champion bo'lib chiqadi deb o'ylayman

Xulosa qilib aytganda, Sportni rivojlantirish orqali ham yoshlarni balki, ozimiz va bobo buvilarimizni ham sog'lomlashtirishimiz mumkun. Men o'ylaymanki bu sport va jimoniy tarbiyani rivojlantirish albttta jamiyatimizdagi insonlarga ham bog'liqdir. Chunki jamiyatda ulg'ayotgan kattayu kichik albatta bir birlaridan o'rnak olib yashaydi va bu ikkala tomonga ham ta'sir qiladi deb o'ylayman. Bugungi kunda yoshlarimiz ilm olish orqali ozini ma'naviy yetuklik tomon yetaklamogda. Lekin jismonan yetuklikga erishish juda qiyin bo'lgani uchun bu yo'lni juda ham o'zchilik bosib o'tmogda. Shuni inobatga olgan holda davlatimiz raxbari yoshlarni jismonan yetuk bo'lishi uchun ham harakat qilmoqdalar. Hozir barcha inson yetuklik tomon intilishi zarur chunki zamon jismonan baquvvat bo'lish undamogda. So'zimning so'ngida aytishim keraki biz yoshlar kelajak poydevorimiz shuning uchun ham biz albatta yetuk kadr bo'lib ulg'ayishimiz zarur.

References:

1. «O'zbekiston tarixi» 11-sinf darslik (85-90 betlar) G'afur G'ulom nashriyoti.
2. «JISMONIY TARBIYA» TAFAKKUR-BO'STONI nashtiyoti 2011-yil